



## МАКТАБГАЧА КАТТА YOSHDAGI BOLALARDA HAYOT XAVFSIZLIGI KO'NIKMALARINI SHAKILLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

---

*Nizomiy nomidagi TDPU "Maktabgacha talim metodikasi" o'qituvchilari*  
**Muratova Munavvar O'rol qizi**  
[munavvarmuratova1@gmail.com](mailto:munavvarmuratova1@gmail.com)  
**Yakubova Zilola Zikirovna**  
[zilolayakubova1979@mail.ru](mailto:zilolayakubova1979@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning hayot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda tarbiyalanuvchilar ko'p uchrayotgan zo'rovonliklarning oldini olish uchun chora tadbirlarini ishlab chiqish, oilada, ko'chada, Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagog hodimlar, ota-onalar, mahalla jamoat barcha mas'ul shaxslar xavfsiz shart sharoitni ta'minlashi lozimligi bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** Sog'lom turmush tarzi, ota-ona, pedagog, hayot xavfsizligi, chora-tadbirlar, jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, e'tiborsizlik, muhit, hamkorlik, xavfsizlik qoidalari, ta'lim-tarbiya, tashabbuskorlik, rivojlantirish, hamkorlikdagi yondoshuv, mahorat.

**Abstract:** The article is aimed at ensuring the safety of preschool children's lives, developing measures to prevent the violence that children often face today, in the family, on the street, in preschool education organizations, pedagogic staff, parents it is stated that mothers, neighborhood community and all responsible persons should provide safe conditions.

**Key words:** Healthy lifestyle, parents, educators, life safety, measures, physical violence, sexual violence, neglect, environment, cooperation, safety rules, education, initiative, development, cooperative approach, skill.

Hozirgi fan-texnika, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalar rivojlangan davrda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish jarayonlari misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, insonlarning tabiiy zaxiralarga va atrof muhitga pala-partishlik munosabatlari, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf-xatar soluvchi qurollarning qo'llanilishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli



tuman zararli hamda zaharli moddalar va vositalar turli xildagi xavflarni yuzaga keltirib, ular insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog‘ligiga, atrof muhit tozaligiga, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid soladi<sup>1</sup>. So‘ngi yillarda jismoniy va aqliy rivojlanishda nogiron bolalar sonining ko‘payishi kuzatilmoqda. Sog‘lom bola tug‘ulishi, uni tarbiyalash va o‘qitish muammosi uzoq vaqtdan beri tibbiyotdan tashqariga chiqib, ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. Bu albatda zamonaviy hayotning ko‘plab salbiy hodisalari: jiddiy ijtimoiy qo‘zg‘alishlar, ekologik muammolar, nikoh va oilaning past darajasi: alkogolizm, chekish va giyohvandlikning ommaviy tarqalishi bilan bog‘liq. Shu boisdan, hozirgi vaqtda pedagoglar oldida turgan ustuvor vazifalardan biri ta‘lim tarbiya jarayonida bolalarning sog‘ligini saqlashdir.

Ilmiy adabiyotlarda “hayot xavfsizligi”, “ko‘nikma”, “bolalik” tushunchalariga o‘nlab turli xil yondashuvlar hamda yuzlab ularni tavsiflovchi tariflar mavjud. O‘rganilayotgan hodisalarning mohiyati, ularning eng umumiy muhim xususiyatlarini aniqlash ta‘rifning ahamiyatini belgilaydi. Ko‘p qirrali bo‘lishni ta‘minlaydigan falsafiy va umumiy ilmiy yondashuvlar xavfsizlik ko‘nikmalarini tarixiy jihatdan ifodalash jarayonlarini o‘rganish istiqbol va zamonaviylik sharoitida pedagogik tahlil qilish imkoniyati, bolalar ijtimoiylashuvining keng ko‘lamli muammolari bilan bog‘liq hodisalar, ilmiy va amaliy tarkibiy qisimlarning rivojlanish tendensiyalarini bashorat qilish ushbu muammoni hal qilish kompekisini shakllantirishga imkon beradi. Xavfsizlik muammolarini idrok etishning o‘ziga xos xususiyatlari turli xalqlar tilida aks etadi.

XVI asrdan boshlab xavfsizlik tushunchasi paydo bo‘la boshlagan. Bugungi kunga kelib, xavfsizlik muammolari falsafa, sotsiologiya, siyosatshunoslik, madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar, pedagogika va boshqa fanlar bilan chambarchas bog‘liq. Psixologik nuqtai nazardan, “xavfsizlik” birinchi navbatda, shaxsning hissi, ehtiyoji, uning xususiyatlari bilan bog‘liq. Huquqshunoslikda xavfsizlik - bu qonunlarda belgilangan huquqiy kafolatlar tizimi, shaxs va jamiyatni himoya qilish, ularning normal holatini, huquq va erkinliklarini ta‘minlashni o‘z ichiga qamrab oladi. Inson, jamiyat hayoti bilan bog‘liq muammolarni tushunish, insoniyat, falsafiy darajadagi “xavfsizlik” va “xavf” tushunchalari yigirma yeti asrdan ko‘proq vaqt davomida amalga oshirilib kelinganligini ko‘rsatadi.

Ma‘lumotlarning aniq ko‘rinishlari Aflotun, Aristotel, Seneka asarlarida keltirilb o‘tilgan.

<sup>1</sup> M.X. TOJIYEV, L NIGMATOV “HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” TOSHKENT - 2012 b-8



Xususan mamlakatimizdan jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan, umumjahon miqyosida e'tirof etilgan qanchadan-qancha buyuk mutafakkirlar va qomusiy allomalar yetishib chiqqan.

Barkamol shaxsni tarbiyalashda uni har tomonlama jismoniy va aqliy rivojlanishi hamda sog'lom turmush tarzini shakillantirish sharq mutafakkirlarining pedagogik g'oyalari va qarashlarida o'z aksini topgan.

Mutafakkir olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida tozalikka, pokizalikka roiya etishlari lozimligini, agarki oilada tartib mavjud emas ekan u yerda ma'naviy poklik ham bo'lmasligini o'qtiradi. Biz albatda Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolani tozalikka, gigiyena qoidalariga va sog'lom turmush tarziga amal qilishga o'rgatib boramiz. Bundan ko'zlangan maqsad - ularning salomatligini mustaxkamlash, sog'lom turmush tarzini tadbiiq qilishdir. Beruniy bola fikrini tanni toza tutish bilangina cheklab bo'lmaydi, balki ko'p harakat qilishga chaqiradi. Uning qalb harakat haqidagi fikri insonning tani bilan ruhi pokligini bir butunligi to'g'risidagi g'oya bilan bog'liqdir. Bu narsa bola tarbiyasida jismoniy sog'lomlik bilan ma'naviy kamolat o'rtasidagi o'zaro muvofiqlik, mutonosiblik haqidagi bugungi kun talabi bilan hamohangdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Muratova, M. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ОТА-ОНАЛАРНИ ТА'ЛИМ ТАРБИЯВИЙ ЖАРЯОНДА FAOL ISHTIROKINI TA'MINLASHNING AMALIYOTDAGI HOLATI. *Science and innovation*, 1(B7), 1091-1096.
2. Muratova, M. O. R., & Dekhkambaeva, Z. (2022). Maktabgacha Ta'lim Muassasasida Bolalarning Hayot Faoliyati Xavfsizligi. *Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities*, 13, 111-113.
3. Muratova, M. O. (2023). МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA AKT NING SALBIY TASIRI. In *ПРОБЛЕМЫ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ* (pp. 7-11).
4. Muratova, M. (2023). NEGATIVE CONSEQUENCES OF BULLYING IN RELATION TO PRESCHOOL CHILDREN. *International Journal of Pedagogics*, 3(10), 43-47.
5. Muratova, M. (2023). PECULIAR ASPECTS OF WORKING WITH FAMILY IN THE FORMATION OF THE CULTURE OF LIFE SAFETY IN CHILDREN OF PRESCHOOL AGE. *Science and innovation*, 2(B2), 593-596.



6. Джамилова, Н. Н., Кадирова, Н. М., & Жамилова, Ф. М. (2020). ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ РАЗВИТИЯ ИНИЦИАТИВНОСТИ У СТУДЕНТОВ. Управление дошкольным образовательным учреждением, (6), 36-42.
7. Zikirovna, Y. Z. (2023). МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY AN'ANALAR RUHIDA TARBIYALASH. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 181-186.
8. Zikirovna, Y. Z. (2023). МАКТАВГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI MILLIY AN'ANALAR RUHIDA TARBIYALASH. Лучшие интеллектуальные исследования, 4(1), 181-186.
9. Махмудова, Д. А. (2024). ВЛИЯНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ИГР НА ЛИПУЧКАХ НА РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. GOLDEN BRAIN, 2(1), 199-202.
10. Imamova, N. (2022). IMPORTANCE OF INDEPENDENT ACTIVITY AND CREATIVITY DEVELOPMENT IN TRAINING TEACHERS. *Science and Innovation*, 1(7), 676-679.